



# **“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy  
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining  
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



**“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari  
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026.   bet.

**Mas’ul muharrir:**  
**Shuhrat Sirojiddinov**  
filologiya fanlari doktori, akademik

**Tahrir hay’ati:**

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;  
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;  
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;  
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;  
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;  
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;  
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;  
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;  
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

|    |                                                                                                                                                      |     |
|----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 15 | <b>Dilnavoz ASATULLAYEVA,</b><br>Buxoro shevalarida uchrovchi morfonologik o‘zgarishlar va ularning tahlili, so‘z asosida yuz beradigan o‘zgarishlar | 332 |
| 16 | <b>Dinara ALLAMURATOVA,</b><br>Qaraqalpaq xaliq ja‘niltpashlari tilinde sinekdoxalar                                                                 | 335 |
| 17 | <b>Navruza MAMAJONOVA,</b><br>Topishmoqlarning kognitiv-semantik modeli                                                                              | 337 |
| 18 | <b>Nodir MUXAMMADIYEV,</b><br>Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalarida o‘zlashma birliklarning uslubiy va sinonimik xususiyatlari                     | 340 |
| 19 | <b>Iroda UMARALIYEVA,</b><br>Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar                                                               | 347 |
| 20 | <b>Umida USMONOVA,</b><br>Eskirgan atov birliklarning yangi o‘zlashma va neologizmlar bilan almashinuvi                                              | 351 |
| 21 | <b>Aziza JUMABOYEVA,</b><br>Ijobiy istak birliklarining uslubiy xususiyatlari                                                                        | 356 |
| 22 | <b>Doniyor TOJIBOYEV,</b><br>Hoji Muin publitsistikasida qo‘llangan sifatlashlarning funksional – uslubiy imkoniyatlari                              | 360 |
| 23 | <b>Maftuna AHMADJONOVA,</b><br>Zamonga oid leksemalarning tarixiy-semantik ko‘chishi: bugun leksemasi misolida                                       | 363 |
| 24 | <b>Gavhar TOSHEMIROVA,</b><br>Po‘lkan shoir ijrosidagi “Gulnor pari” dostonining morfologik xususiyatlari (bulung‘ur dostonchilik maktabi misolida)  | 366 |
| 25 | <b>Maxfuza OZOTBOYEVA,</b><br>Diskursiv shaxs va uning badiiy matndagi kommunikativ vazifalari                                                       | 370 |
| 26 | <b>Aziza ABDUSAMATOVA,</b><br>Turkiyadagi etnik o‘zbeklar shevasi o‘rganilishining dolzarbligi                                                       | 373 |

#### 4-O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI VA O‘RGANILISH TARIXI

|   |                                                                                                                                                                                  |     |
|---|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 1 | <b>Shomirza TURDIMOV,</b><br>Qo‘shiqlarda an‘anaviy qaytariqlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/CCZQ6807                                                                         | 377 |
| 2 | <b>Tohir SHERMURODOV,</b><br>“Alpomish” dostonida islomiy-ma’rifiy tafakkur ifodasi<br>10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/VCOP1093                                                  | 381 |
| 3 | <b>Ilhom SAYITQULOV,</b><br>O‘zbek xalq eposida jang tasvirlarining badiiy funksiyasi,                                                                                           | 385 |
| 4 | <b>Iroda ERNAZAROVA,</b><br><b>Nigora TO‘XTAQULOVA,</b><br>Xalq qo‘shiqlari matnida “ko‘z” bilan bog‘liq ifodalarning badiiy tahlili<br>10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LGVB6694 | 388 |
| 5 | <b>Kamoliddin EGAMQULOV,</b><br>Azim shoir ijodida an‘ana (Chiroqchi dostonchilik maktabi)<br>10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/HVUU6964                                           | 391 |
| 6 | <b>Ilhomjon DARMONOV,</b><br>O‘zbek shomon afsonalarining obrazlar tizimi<br>10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LNCQ8085                                                            | 395 |

## IJOBIY ISTAK BIRLIKLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI

### STYLISTIC CHARACTERISTICS OF POSITIVE WISH EXPRESSIONS

**Aziza JUMABOYEVA,**

*Urganch davlat universiteti doktoranti,*

[aziza.baxtiyorovna@icloud.com](mailto:aziza.baxtiyorovna@icloud.com)

10.52773/tsuull.conf.2026/PZXA9866

**Annotation.** *This article analyzes the stylistic features of blessing expressions, praises, congratulations, felicitations, and speech etiquette units in the Uzbek dialects of the Khorezm region. The study highlights their emotive-expressive nature, ceremonial characteristics, and linguocultural aspects. It also demonstrates, through examples, the role of phonetic, lexical, and syntactic features specific to Khorezm dialects in shaping the stylistic character of positive wish expressions.*

**Key words:** *Khorezm dialects, positive wish expressions, blessing, praise, congratulations, speech etiquette, stylistics, linguoculturology, dialectology.*

Xorazm viloyati o'zbek shevalaridagi ijobiy istak mazmunini ifodalovchi duo, olqish, tabrik, tilak, muborakbod hamda nutqiy etiket ko'rinishidagi turg'un tuzilmalar tilning uslubiy-estetik imkoniyatlari eng yorqin namoyon bo'ladigan qatlamlardan biridir. Mazkur birliklarning uslubiy tabiati ularning oddiy axborot uzatuvchi gaplarga nisbatan boyligi, obrazlilik, emotiv-ekspressiv bo'yoqdorligi va marosimiy-madaniy yuklanganligi bilan belgilanadi. Ko'proq o'g'uz lahjasi asosiga tayanuvchi Xorazm shevalarida ushbu birliklar fonetik, leksik va sintaktik darajalarda o'ziga xos uslubiy manzarani yaratadi va adabiy o'zbek tilining umumiy qatlamidan farqli, mustaqil tadqiqot obyekti tashkil etadi. M.M. Bazarova o'zbek tilidagi ijobiy istak birliklariga bag'ishlangan dissertatsiyasida mazkur birliklarning leksik, semantik, morfologik hamda sintaktik xususiyatlarini keng yoritgan bo'lsa-da, ularning uslubiy tabiati alohida bob doirasida batafsil tahlil qilinmagan [Bazarova 2007:4]. Xorazm shevalari materialiga nisbatan ushbu kamchilik yanada sezilarli: mazkur shevalarning o'ziga xos uslubiy boyligi tilshunoslikda tizimli tahlil obyekti aylanmagan. Holbuki, F. Abdullayev o'z paytida Xorazm shevalarining leksikasida qadimgi xorazmiy, forsiy va arab unsurlarining o'ziga xos uyg'unligini qayd etgan va bunday xilma-xillikning uslubiy potensialini ko'rsatib bergan [Abdullayev 1961:14].

Uslubiyat tilshunoslikning tilning tanlangan vositalari va ularning muloqot kontekstidagi qo'llanish qonuniyatlari bilan shug'ullanuvchi sohasidir. Uslubiy tahlilning markaziy masalasi tilning bir xil mazmunni ifodalash uchun mavjud bo'lgan turli variantlari orasidagi tanlovning asoslanishi: so'zlovchi nega aynan shu leksik birlikni, shu grammatik qolipni, shu fonetik ko'rinishni tanlagan va bu tanlov qanday uslubiy effektini yaratadi. N.Mahmudov ta'kidlashicha, uslubiy tahlil til birliklarining shakliy ifodalanishi bilan birga ularning kommunikativ, emotiv va estetik funksiyalarini ham nazarda tutishi kerak [Mahmudov 2012:6]. Bu yondashuv ijobiy istak birliklariga tatbiq etilganda mazkur birliklarning bir xil mazmunni turli uslubiy bo'yoqlarda ifodalash qobiliyati alohida diqqatga molikdir. Uslubiy xususiyatlar tizimi odatda to'rt asosiy yo'nalishda o'rganiladi: funksional

uslubiyat til birliklarining muloqot sohasiga qarab tabaqalanishi, pragmatik uslubiyat emotiv-ekspressiv bo'yoqdorlik va nutq aktining kuchi, lisoniy-madaniy uslubiyat til birliklarining milliy-madaniy qiyofasi hamda sotsiolingvistik uslubiyat nutqning yosh, jins, ijtimoiy tabaqalanishi hisoblanadi. Xorazm shevalaridagi ijobiy istak birliklarining uslubiy tahlilida mazkur to'rt yo'nalishning barchasi faol rol o'ynaydi, chunki duo, olqish, tabrik kabi birliklar bir vaqtning o'zida funksional maqsadga xizmat qiladi, pragmatik ta'sir o'tkazadi, madaniy kod sifatida milliy dunyoqarashni saqlaydi va sotsiolingvistik jihatdan turli ijtimoiy guruhlar nutqida farqli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

V.A.Maslova lingvokulturologiyaga oid ishida har bir xalq tilida yashiringan madaniy kod borligini, bu kod turg'un nutqiy birliklarda aniq belgilarda jamlangan holda yashashini qayd etadi [Maslova 2001:17]. Xorazm shevalaridagi olqish-duo qatlamining uslubiy tabiati aynan shunday jihatdan qaralishi kerak: mazkur birliklar faqat til hodisasi emas, butun bir mintaqa aholisining dunyo haqidagi tasavvurlarining, qadriyatlar tizimining, axloqiy-ruhiy me'yorlarining kondensatsiyalashgan ifodasidir. Ularning uslubiy xususiyatlari tahlili ham shuning uchun tilshunoslik, madaniyatshunoslik va etnologiyaning chorrahasida turuvchi kompleks yondashuvni talab qiladi.

Uslubiy xususiyatlarning tahlili nafaqat birliklarning ichki tuzilishini, balki ularning adabiy til bilan bog'liqligini ham yoritadi. Xorazm shevalaridagi olqishlar bir jihatdan mahalliy dialektal hodisa sifatida, ikkinchi jihatdan umumo'zbek tili tizimidagi mintaqaviy-uslubiy stil sifatida qaraladi. Bu ikkiyoqlamalik olqishlarning uslubiy maqomini qiziqarli qiladi: ular hech qachon sof adabiy til me'yorlariga tushmaydi, ammo shu bilan birga adabiy tilga nisbatan begona deb ham qaralmaydi. Aynan shu o'rinda ularning chegara qatlam sifatidagi o'rni yaqqol namoyon bo'ladi. Xuddi shunday chegaradagi qatlamlar Farg'ona, Toshkent va Buxoro shevalarida ham mavjud bo'lib, o'zbek milliy tilining uslubiy boyligini yaratuvchi mintaqaviy qismlar sanaladi.

Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklar bir umumiy semantik maydonini ezgu niyat tilash tashkil etsa-da, ular ichki funksional-uslubiy jihatdan bir necha aniq kichik janrlarga tabaqalanadi. M.M.Bazarova mazkur birliklarni duolar, olqishlar, tabriklar, muborakbod iboralari va nutqiy etiket formulalariga ajratib ko'rsatadi. Har bir kichik turning o'ziga xos uslubiy qiyofasi, qo'llanish vaziyati, ishtirokchilari va natijaviy ta'sir doirasi mavjud. Xorazm shevalaridagi materiallarda ushbu tabaqalanish ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi.

Duo uslubi ijobiy istak birliklarining eng yuqori darajadagi tantanali, marosimiy-diniy ko'rinishidir. Duo matnlari aksariyat hollarda uzun, ko'p komponentli, parallelizmlarga boy bo'lib, ularda Allohga to'g'ridan to'g'ri murojaat, iltijo ohangi ustun turadi. Xorazm shevalaridan yozib olingan tipik duo matnining namunasi Amina Jumaniyazovadan (Hazorasp, Karvak qishlog'i) yozib olingan: *Omin qutli mubarak bolgāy xudayim. Shu bāshlāgān toylā xudāyim ongindān bāshlāgan bolgāy, Allahim shu ikkisinā nāzār tāshlāgan bolgāy. Shu ikki yāsh qoşgāni bilān qoşā qārigāy, Gulāsanlāri juft bolgāy, oḡil qizlāri kop bolgāy. Yollāri mudamina aq bolgāy, yoldaşlāri haq bolgāy. Yūsūf-Zūlāyxani meyr-muhābbātini bārgāy, Ayūb ālāyhissālamu qānatini bārgāy. Otirsā ornı bolgāy xudayim, yürsā yollāri bolgāy* [Jumaboyeva 2025:32]. Mazkur matn uslubiy jihatdan hozirgi o'zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan arxaik hisoblanadigan *bolgāy*, *bārgāy* kabi fe'l shakllarining takrorlanishi, *Yusuf-Zulayho*, *Ayub alayhissalom* kabi diniy-mifologik obrazlarning qo'llanishi, parallelizmning keng ishlatilishi, *xudayim* va *Allahim* undalmalarining ritmik takrorlanishi kabi bir necha xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu uslub o'zining tantanaliligi va ohangdorligi bilan duoning marosimiy maqomini ta'minlaydi. Olqish uslubi duoga nisbatan kamroq rasmiy, ko'proq

so'zlashuv nutqiga yaqin, ammo shunga qaramay, obrazli va ritmik tashkil etilgan bo'yoqqa ega. Olqishlar ko'pincha ko'p komponentli qo'shma gap ko'rinishida bo'lib, alohida predikativ qismlar intonatsiya orqali birlashadi. Misol uchun: *Bā bosin jurtimiz, tinč bosin asmanimiz. Dāvlātimizā goz dejmāsin, elatimizni axilligi bardāvam bosin! Hār bir ailāga bāxt-sadāt, dāsturxana qut-bārākā jāyilsin!* Olqishda diniy murojaatning o'rniga *bizning yurtimiz, har bir oilaga* kabi jamoaviylik munosabati ustun turadi. Uslubiy jihatdan olqish duoga nisbatan kengroq auditoriyaga qaratilgan, ham diniy, ham dunyoviy bayramlarda aytiladi va shu sababli funksional-uslubiy qamrovi kengroqdir.

Tabrik va muborakbod uslubi eng ko'p ishlatiladigan qisqa, aksariyat hollarda bir yoki ikki predikativ qismdan iborat bo'lgan formulalardir. Ushbu turning yadro birligi *Marāk bosin* (muborak bo'lsin) formulasi bo'lib, u deyarli yangi kiyim, imorat, lavozim, farzand, bayram) qaratilgan holda qo'llanadi. Uslubiy bo'yog'i yuqori bo'lgani sababli mazkur formula umumiy tabriklash vositasi maqomini oladi. Tabriklarning yana bir o'ziga xos ko'rinishi ularning o'g'uz lahjasi ko'rsatkichlari bilan o'zgartirilgan shaklidir: adabiy tildagi *muborak* o'rnida Xorazm shevalarida *marāk* (undosh almashinishi  $b > m$  va unli qisqarishi), *qutlug'* o'rnida *qutli* (intervokal  $g'$  ning tushishi,  $u$  ning  $i$  ga o'tishi) kuzatiladi. Bu fonetik o'ziga xoslik tabriklarning uslubiy qiyofasini adabiy tildan farqlaydi.

Nutqiy etiket formulalari eng kichik hajmdagi, yuqori darajada turg'unlashgan, kundalik muloqotda avtomatik qo'llaniladigan birliklardir. Ushbu turga *Sammakim* (*assalomu alaykum* yigitlar tilidagi qisqartirilgan shakli), *Assam* (xuddi shu ma'noda qizlar tilidagi shakli), *Xoš* (xayr), *Sayoliḡla* (sog' bo'ling), *Hormang*, *Bor bo'ling*, *Aqjol* kabi birliklar kiradi. Ularning uslubiy qiyofasi qisqalik, tejamkorlik va yuqori darajadagi pragmatik tayyorlanganlik bilan belgilanadi. Jonli nutqda bu formulalar aynan o'z shaklida, o'zgartirilmasdan qo'llanadi: ular nutq xotirasida tayyor saqlanadi va kerakli vaziyatda yaxlit holda chiqariladi.

Funksional-uslubiy tabaqalanishning muhim ko'rinishi bir xil semantik yadro atrofida qurilgan birliklarning turli IIMIBlarning turlarida qayta ishlatilishidir. Misol uchun, uzoq umr tilash mazmuni duoda *Umri guni uzaq bolyaj Xudajim* ko'rinishida, olqishda *Qošqaniḡ bilān qoša qarriḡajsan* ko'rinishida, tabrikda *Umriḡ uzaq bosin* (umring uzoq bo'lsin) ko'rinishida, nutqiy etiketda esa *Say bol* (sog' bo'l) ko'rinishida ifodalanadi. Har bir ko'rinish o'z IIMIBlarning turlarining uslubiy me'yorlariga rioya qiladi: duo keng yoyiq va diniy, olqish obrazli va marosimiy, tabrik qisqa va aniq, etiket esa minimalistik va formulaviy tuzilmaga ega.

Funksional-uslubiy tabaqalanishning yana bir o'ziga xos ko'rinishi qadah so'zlari janridir. Xorazm shevalaridagi qadah so'zlari marosim doirasida aytilib, olqishning ohangdor, tantanali variantini taqdim etadi. Masalan, *Kop - kop jiyilip durḡajmiz, baxtimiza say boyaj* (ko'p-ko'p yig'ilib turaylik, baxtimizga sog' bo'lsin) ifodasi ishlatiladi. Qadah so'zlarining uslubiy xususiyati shundaki, ular bir tomondan olqishning ohangini saqlaydi, ikkinchi tomondan ziyofat, to'y, marosim dasturxoniga moslashtirilgan aniqliqqa ega. Qadah so'zlarida ko'pincha tantananing umumiylik, jamoaviylik qirrasini ta'kidlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xorazm viloyati o'zbek shevalaridagi ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklar tilning eng boy va milliy-madaniy jihatdan muhim qatlamlaridan biri hisoblanadi. Duo, olqish, tabrik, muborakbod hamda nutqiy etiket formulalari nafaqat ezgu niyat ifodalovchi kommunikativ vosita, balki xalqning tarixiy tajribasi, diniy qarashlari, estetik tafakkuri va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi lingvomadaniy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu birliklarning uslubiy tabiati ularning obrazlilik, ritmik tashkil topishi, emotiv-ekspressiv bo'yoqdorligi hamda marosimiy

vazifalari orqali yuzaga chiqadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Xorazm shevalaridagi ijobiy istak birliklari fonetik, leksik va sintaktik jihatdan adabiy o‘zbek tilidan sezilarli darajada farqlanib, o‘ziga xos mintaqaviy-uslubiy tizimni hosil qiladi. Shuningdek, ijobiy istak birliklari funksional-uslubiy jihatdan turli janrlarga tabaqalanishi, ularning har biri ma’lum kommunikativ vaziyat va ijtimoiy ehtiyojga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Mazkur birliklar xalqning milliy dunyoqarashi, jamoaviylik ruhi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy birdamligini aks ettiruvchi muhim nutqiy vositalar sifatida qadrlanadi. Shu bois Xorazm shevalaridagi ijobiy istak birliklarini uslubiy va lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish o‘zbek dialektologiyasi hamda uslubiyatining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Iskandarova Sh. O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari. – Toshkent: Fan, 1993.
2. Abdullayev F.A. Xorazm shevalari. I jild. – Toshkent: Fan, 1961.
3. Bazarova M. O‘zbek tilidagi ijobiy istak mazmunini ifodalovchi nutqiy birliklarning lisoniy xususiyatlari (duolar va nutqiy etiketlar misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2007.
4. Dialektologik dala yozuvlari materiallari. Xorazm viloyati. (Yozib oluvchi: Jumaboyeva A.). – Xorazm, 2025.
5. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. – Farg‘ona: Classic, 2021.
6. 11. Qo‘chqorov N. O‘zbek xalq marosimlarida olqish va duolarning lingvomadaniy tahlili. – Buxoro: Durdona, 2019.
7. Meliboyeva S. A. Ijobiy istak birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari // Academic research in educational sciences. – Toshkent, 2021. – Jild 2. – № 6.
8. Sulaymonova H. H. Tilak mazmunli birliklarning diniy va sotsiologik xoslanganligi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Toshkent, 2022. – Vol. 2. – Issue 10.
9. Xoliqulova Sh. Istak mazmunidagi lisoniy birliklarning konseptual xususiyatlari // Conference on the role and importance of science in the modern world. – Samarqand, 2025. – Vol. 2. – Issue 9.